

FUQAROLIK PROTSSESSIDA FUQAROLIK ISHLARINING SUDLOVGA TAALLUQLILIGI

Xudaynazarova Uldaulet Muratovna

Qoraqolpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada taalluqlilik tushunchasi, turlari va ularni belgilash asoslari, fuqarolik, mehnat, oila va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi, alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning sudga taalluqliligi haqida asosiy tushunchalarni berish va talabalarda mazkur protsessual institut haqida tegishli bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: sudga taalluqlilik, mustasno, alternativ, shartnomaviy, shartli (imperativ)

Taalluqlilik deganda, fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish vazifasi qonun bilan muayyan davlat organi yoki jamoat tashkiloti zimmasiga yuklatilganligi tushuniladi.

Mazkur ta‘rifdan ko‘rinadiki, taalluqlilik haqidagi qoidalar faqat qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilishi hamda fuqarolik ishlari muayyan davlat organi yoki jamoat tashkiloti zimmasiga yuklatilishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Ta‘kidlash joizki, taalluqlilik sud hokimiyati bilan boshqa davlat organlari o‘rtasidagi vakolatlarning bo‘linishida muhim hisoblanib, ushbu vakolatlarning amalda qo‘llanilishiga sharoit yaratadi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 26-moddasiga muvofiq, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga quyidagi ishlar taalluqli bo‘ladi:

1) fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to‘g‘risidagi va munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo‘yicha ishlar, agar taraflardan hech bo‘lmaganda bittasi fuqaro bo‘lsa, bundan qonunda shunday nizolarni hal qilish boshqa sudlarga yoki boshqa organlarga topshiriladigan hollar mustasno;

2) Fuqarolik protsessual kodeksining 293-moddasida sanab o‘tilgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar,

3) Fuqarolik protsessual kodeksining XVIII bobida ko‘rsatilgan va buyruq tartibida hal etiladigan ishlar;

4) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi va hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ishlar;

5) chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sud (arbitraj)larining hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlar.

6) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar.

Xususan, Yu.K.Osipovning fikricha, taalluqlilik huquqiy ishlarni turli xil yurisdiksiya organlari o'rtasida taqsimlash mexanizmi vazifasini bajaruvchi sohalararo institut sifatida namoyon bo'ladi. Yu.K.Osipovning fikrini davom ettirgan holda boshqa bir huquqshunos olim V.V. Yarkov taalluqlilik ko'p qirrali ahamiyat kasb etishini, hokimiyatning bo'linish prinsipiga asoslangan davlat hokimiyati tizimida taalluqlilik muhim vazifa, ya'ni yuridik mexanizm vazifasini bajarishini ta'kidlab o'tadi.

Taalluqlilik quyidagi turlarga ajratiladi:

- mustasno;
- alternativ;
- shartnomaviy;
- shartli (imperativ)

Mustasno taalluqlilik. Fuqarolik, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan aksariyat nizoli ishlar bevosita sudlarga taalluqli bo'lib, boshqa organlar tomonidan mazmunan ko'rilishi mumkin emas. Taalluqlilikning bunday turi mustasno taalluqlilik deb nomlanadi. Mustasno taalluqlilikka muvofiq, nizoli ishni sudda ko'rib hal qilish uchun sudga qadar u yoki bu organlarda mazkur ishning ko'rilishi talab etilmaydi

Masalan, xodimni ishga tiklash, voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan er va xotinni nikohdan ajratish, turar joyga nisbatan berilgan ordeni haqiqiy emas deb topish va shu kabi ko'plab fuqarolik ishlari mustasno taalluqlilikka misol bo'la oladi.

Alternativ taalluqlilikka ko'ra, subyektiv huquq to'g'risidagi nizo manfaatdor shaxslarning xohishiga ko'ra, sudda yoki boshqa davlat organlari yoki jamoat tashkilotlarida ko'rilishi mumkin.

Shartnomaviy taalluqlilik alternativ taalluqlilikka o'xshab ketadi. Bunda ham taraflar nizoni hal etish vakolatiga ega bo'lgan organni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Faqat bu yerda nizoning qaysi organda ko'rilishini taraflar o'zaro kelishib belgilaydilar. Masalan, taraflar yuzaga kelgan nizoni hal qilishni hakamlik sudiga topshirish haqida hakamlik bitimini tuzishlari shular jumlasidandir. Qonun hujjatlarida yoki shartnomalarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ishlar dastavval sudga qadar boshqa organlarda ko'rilganidan keyingina sudga taalluqli bo'ladi. Bunday taalluqlilik turi shartli taalluqlilik deb nomlanadi.

Taalluqlilikni belgilash shartlari quyidagilar:

- Nizoli huquqiy munosabat xarakteriga qarab;
- Ishda ishtirok etuvchi subyektlar tarkibiga ko'ra;

- Nizoli yoki nizosiz huquqqa qarab;
- Taraflar o'rtasidagi shartnomaga qarab.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. -Toshkent, Adolat, 2007.
2. Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шарҳлар. Тошкент, ТДЮИ, 2010.
3. Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Дарслик. Умумий қисм. Тошкент: ТДЮИ, 2010.
4. Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). - Toshkent, TDYU, 2014.
5. Комментарий к Гражданскому процессуальному кодексу Республики Узбекистан. Ташкент, Адолат, 2016.
6. Фуқаролик ишлари бўйича судга мурожаат қилиш тартиби. Амалий қўлланма. Тош 1. -Тошкент. Vaktria press, 2016.
7. Осипов Ю.К. Подведомственность юридических дел. Свердловск, 1973. - 83 с.
8. Ярков В.В. Современные проблемы подведомственности гражданских дел. // Журнал